

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## TASAVVUFDA FUTUVVAT VA NUBUVVAT MASALASI

**Sardorbek Umarov Akmalovich**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.*

[s.umar.91@mail.ru](mailto:s.umar.91@mail.ru)

Orcid: 0009-0006-5696-5532

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada mo‘tabar va sharif ilm sanalgan futuvvat masalasi nubuvvat bilan bog‘liq tahlil qilindi. Futuvvat g‘oyasi va uning amaliy hayotdagi roli payg‘ambarlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq talqin qilindi. Tasavvufiy manbalarning guvohlik berishicha, Alloh tomonidan har bir payg‘ambarga berilgan axloqiy sifat futuvvat g‘oyasining asosiy tamoyiliga aylandi. Futuvvat istilohi Qur‘onda bir marta tilga olingani, bu so‘zni birinchilardan bo‘lib, Jafar Sodiq, Ma‘rif Kerxiy qo‘llaganligi tilga olindi. Futuvvat axloq bilan bog‘liq tushuncha bo‘lgani uchun olimlar futuvvatga bag‘ishlab juda ko‘plab kitoblar yozishgani aytiladi.*

*Futuvvatning nubuvvat bilan bog‘liqligi Ibrohim, Muso, Yusuf, Muhammad (s.a.v) shuningdek, Xizr, Yusuf, G‘or ahlilari bilan bog‘liq qissa va rivoyatlar orqali sharhlendi. Futuvvatning asosi saxovat va himmatga asoslanganligi bois saxovatga oid Shis alayhissalom qissasi hikoya qilindi.*

*Maqolada futuvvat ilmining tadrijiy takomili nisbiy ravishda 2 davrga ajratildi.*

*Futuvvatning so‘fiylikka aloqadorligi, juda ko‘plab so‘fiylar futuvvat va javonmardlik g‘oyasini kamolot yo‘lidagi bir daraja sifatida qabul qilganligi aytib o‘tiladi. Shuningdek, axiylik tashkilotlarining tashkil topishi Hazrat Aliga, yana boshqa talqinlarda esa Muso va uning yaqin do‘sti Horunga borib taqalishi manbalar orqali asoslandi. Qur‘onning “Baqara”, “Yusuf”, “Toha”, “Kahf”, “Qasas” kabi suralarida futuvvatga oid oyatlar tahlilga tortildi. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy”, Kaykovusning “Qobusnoma” kabi asarlarda futuvvatning mazmuni, mohiyati kengroq tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *futuvvat, so‘fiy, payg‘ambarlik, fatiy, nubuvvat, irfon, saxo, himmat, shijoat, Hizr, Muso.*

Futuvvat ilmi - ko‘hna Sharq xalqlari hayoti va adabiyotida chuqur o‘rin olgan ta‘limot hisoblanadi. Uning mohiyatini ishq, komillik, saxovat, himmat, axiylik, fatiylik, javonmardlik va mehmonnavozlik kabi axloqiy sifatlar tashkil etadi.

Futuvvat so‘zining o‘zagi arabcha “fatiy” kalimasidan olingan bo‘lib, umumiy ma‘noda “yosh yigit” degan ma‘noni anglatadi. Bu kalima haqida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: “fatiy” so‘zining yosh yigitga nisbat berilishi haqiqatdir, bundan boshqasi esa majoz, ya‘ni ko‘chma ma‘nodadir. Majoziy ma‘noda insoniy fazilatlar nuqtayi nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga nisbatan qo‘llaydilar. Va majoz deyilishiga sabab shuki, modomiki solik nafs havasi tuzog‘ida tabiiy ehtiyojlar bandida ekan, u go‘yo go‘dakka o‘xshaydi, nafs martabasidan taraqqiy etib, dil maqomiga yetishsa, balog‘at ostonasidagi yosh o‘spirin qabilida bo‘ladi. Yosh yigitda qon qaynoq, badan quvvati (jismoniy quvvat) yetarli

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bo‘lganidek, javonmardlarda ham insoniy kamolot (bilan birga) ma’naviy quvvat yetuk darajada bo‘ladi va ushbu martabadagi insonga “fatiy” deydilar”.<sup>1</sup>

Futuvvat ilmi haqida juda ko‘plab fikrlar bildirildi, unga bag‘ishlab maxsus futuvvatnoma turkumidagi asarlar yaratilganki, ularni chuqur bilmasdan turib futuvvatning mazmun-mohiyati, tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi roli va badiiy adabiyotga ta’siri kabi masalalarni aniqlab bo‘lmaydi. Tasavvuf va tavhid ilmining bir bo‘lagi sanalgan futuvvat ilmi haqida yirik olimlar va allomalar arab va fors tilida bir qancha kitoblar yozishgan. Sulamiyning “Tasavvuf va futuvvat”, Kusheriyning “Risola”, Sulaymon Uldag‘ning “Futuvvat” kabi asarlarida, “Odob ul-futuvvat” (Futuvvatlar odobi), “Orif ul-masrif” (Oriflar foydasi), “Mirsod ul-a’bod” (Bandalarning mushohada qiladigan joyi), “Haqiqat ul-haqiqat” (Haqiqat bog‘chalari), risolalarda, Fariddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Jomiyning “Risolayi sayr”, Zariya Isfahoniyning “Zodul axira” (Oxirat ozuqalari), Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat”, Imom Abu Abdurahmon Sulamiyning “Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur”, Shayx Ahmad Ibn Muhammad Abdullohning “Axloqus solihiy (Yaxshilar axloqi) kabi kitoblarda futuvvatning mazmun-mohiyati va bu sifatga ega bo‘lgan kishilarning ta’rifi tilga olinadi.

Birinchilardan bo‘lib futuvvat ilmi haqida ilk bor asar yozgan olim – bu Abu Abdurahmon Sulamiydir. Uning ta’riflashicha, futuvvat istiloh sifatida “Allohning amrlariga bo‘ysunmoq, go‘zal ibodat qilmoq, har qanday yomonliklarni tark etish, zohiriy va botiniy axloqning eng go‘zaliga amal qilish” degan fikrni bildiradi.<sup>2</sup> “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida esa “futuvvat” so‘zi (javonmard, saxo, karam) deb izohlanadi.<sup>3</sup> Husayn Voiz Koshifiy esa “futuvvat” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini quyidagicha keltiradi: “Bilgilkim, “futuvvat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi yoshlik demak yosh yigitni “fatiy” derlar. Ba’zilar bu so‘zga izoh berib, futuvvatni javonmardlik (jo‘mardlik) deganlar. Istiloh (termin) sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo‘lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o‘z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo‘ladi. Xos ta’rif yuzasidan esa futuvvat insoniy fitrat nuri zuhrining nafsoniy belgilari zulmatiga qarshi qo‘yilishi, (shu zulmatni) yorib

<sup>1</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмardлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011-йил, 9- бет.

<sup>2</sup> Суллабий. Тасаввуфда футувват, тарж. Оташ С. Анкара.1977.24-б.

<sup>3</sup> Фарҳанги забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX). Иборат аз ду чилд. Дар зери таҳрири М.Шукуров ва д. Чилди I. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 450 с.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘tishidan iboratdir.<sup>4</sup> Eronlik olim Sayyid Ja’far Sajjodiyning “Farhangi istilohot va ta’biroti irfoniy” asarida javonmard istilohiga shunday ta’rif beriladi: “Javonmard – so‘fiylar istilohida komil orif va o‘zidan kechgan insonga nisbatan aytiladi. Javonmardlarning yo‘li haqiqat mujohidlarining yo‘lidan ayrichadir. Ularning ishlari ham o‘zgacha rang- u bo‘yga ega, ishlari ham boshqacha zavq-u shavqqa to‘la. Na ruxsat-u uzr ularning yo‘lini to‘sadi, na vahshat, qo‘rquv saltanati ularni qaytara oladi. Nuriy, Abu Hamza va Daqqoqni asir olishadi va qatlga buyurishadi. Jallod shamshirini ko‘tarib kelganida oldinga Nuriy chiqadi va oldin meni boshimni ol, deydi. Bu qanday botirlik, deb so‘ragan jallodga Nuriy, jonim birodarlarim uchun qurbon bo‘lsin, deydi...”<sup>5</sup> Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asarining 44-bobi javonmardlikka bag‘ishlangan. Asarda futuvvat istilohi o‘rnida javonmardlik so‘zi qo‘llangan bo‘lib, javonmardlik “odamiylik”, “oliyjanoblik” ma’nolarini ifodalagan. “Qobusnoma”da insonning uch xil sifatga egaligi va ularning biri javonmardlik ekanligi tilga olinadi. “Bilg‘ilki, odam uch xil sifatga egadir. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh nodon bo‘lsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri javonmardlikdir deydi.”<sup>6</sup>

Futuvvat so‘zini birinchi bo‘lib, Jafar Sodiq, yana boshqa manbalarda Fudayl ibn Iyaz qo‘llagan deb ko‘rsatiladi.<sup>7</sup> Lekin uni birinchi bo‘lib qabul qilgan inson Ma’ruf Kerhi hisoblanadi.<sup>8</sup> Ushbu fatiy kalimasi Qur’onda ham bir necha o‘rinlarda tilga olinadi: “Ular o‘z Robbilariga iymon keltirgan jasur qavm edilar”<sup>9</sup> deya oyat va hadislarda ham keltiriladi. Qur’oni karimda futuvvat, fato, fatiy, axiylik tushunchalari juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanadi. Adabiyotshunos J.Mahmudov futuvvat va axiylik tushunchalari Qur’oni karimda 67 marta qo‘llangan desa, turkiyalik Raxshan Gurel o‘z tadqiqotida futuvvat kalimasini Qur’oni karimda 21 o‘rinda (15 ta oyatda) zikr etilishi, ularda “yosh yigit, shijoatli” mazmunidan tashqari xizmatkor, pokdomon kanizak, fatvo bermoq, fatvo istamoq, xabar so‘ramoq, tush ta’bir etmoq

<sup>4</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011-йил, 7- бет.

<sup>5</sup> Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – С. 294.

<sup>6</sup> Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Оғаҳий таржимаси. Нашрга тайёроловчилар С. Долимов, У. Долимов. “O‘QITUVCHI” нашриёти, Тошкент: 2015 йил, 183 бет.

<sup>7</sup> Kuşeyri, *er-Risâle*, s. 230; İbn Kayyim, *Medâricü’s-sâlikin* (Tahk. İmâd Amir), *Dârü’l-Hadis, Kâhire* 2003, II, 278.

<sup>8</sup> Reşat Ongoren, “Ma’ruf-i Kerhi”, *TDVİA*, XXVIII, İst. 2003, s. 68. Sülemî, Ma’ruf el-Kerhi’nin fütüvvetle hatırlanan biri olduğunu belirtir (Bkz. Sülemî, *Tabakât*, s. 84. Krş. Hucvirî, a.g.e., s. 212.).

Hucvirî, Ma’ruf el-Kerhi’nin fütüvvet alâmetlerini şöyle sıraladığını nakleder ve yorumlar: Sadâkatsizlik olmadan vefâ, comertlik yapılmadan medih, istemededen verme. Sadâkatsiz ve hilafsız vefâ, kulun, kulluk hâlinde muhâlefeti ve âsi olmayı kendisine haram kılmasıdır. Comertlik yapılmadan medih, kulun, ihsânda bulunma; varlıklı olması hâlinde, ihsân ve iyilikte adam ayırt etmemesi, hâli bilenen kimseyi dilenme durumunda bırakmamasıdır.” Bkz. Hucvirî, a.g.e., s. 213.

<sup>9</sup> Süleyman Uludağ, “Fütüvvet”, XIII, *TDVİA*, İst. 1996 s. 259. Bkz. Ali Sâmî en-Neşşâr, *Neş’etü’lfikri’l-felsefi fi’l-İslâm*, Kâhire 1978, III, 403.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

kabi fe’l shakllarida qo‘llanganini keltiradi va ularning qanchalik yuksak ma’noga egaligidan xabardor qiladi hamda futuvvatning tarixiy genezisi aynan Ilohiy kalom bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.<sup>10</sup> Olima Annamari Shimmel esa “feta” kalimasini Hazrat Ali nisbatan qo‘llangan deb baholaydi.<sup>11</sup>

Aslida mazkur ilmning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi Odam Atoga borib taqaladi. Chunki futuvvat ilmiga hayot bag‘ishlab turuvchi kuch – bu pok muhabbatidir. Ushbu pok ilohiy muhabbat sabab, Odam Ato yigitlik shijoati bilan o‘z maqsadiga erishdi. Odam Atodan boshlangan futuvvat Shis kabi jo‘mardlik, Nuh kabi yaxshilik, Ibrohim kabi vafoli, Ismoil kabi durustli, Muso kabi ixlosli, Ayub kabi sabrli, Dovud kabi jo‘mard, Yusuf kabi kechirimli, Muhammad kabi marhamatli, Abu Bakr kabi hamiyatli, Umar kabi adolatli, Usmon kabi hayoli, Ali kabi bilimli bo‘lishga sabab bo‘ldi.

Ibrohim alayhissalomga javonmard nomi but va sanamlarni sindirganlaridan keyin berildi. Alloh Ibrohim alayhissalomga shunday deydi: “Sizlar iymon keltirganingiz uchun “feta”dirsiz.”<sup>12</sup> Tasavvuf adabiyoti tarixida Ibrohim alayhissalom ilk fatiy sifatida tilga olinadi. Ibrohim alayhissalomni “abul fatiyyon” ya’ni (fatiylar otasi) deb ham ulug‘lashgan.

Ibrohim alayhissalomning shijoati but va sanamlarni sindirdi. Bu esa futuvvatning eng muhim asosi shijoat ekanligini ko‘rsatadi. Bu haqida Koshifiy shunday deydi: “...javnardlikning butun mohiyati ikki sifatda mujassamdir: biri do‘stlarga naf yetkazish, ya’ni saxovat, ikkinchisi do‘stlarni dushman zararidan himoya qilish, ya’ni shijoat.”<sup>13</sup> Demak, futuvvatning mazmun mohiyatida shijoat va saxovat turadi. Shijoatdagi mardlik, botirlik, qahramonlik, dilovarlik kabi sifatlar zohiriy belgilari sirasiga kirsa, saxo, karam, iysor, ehson esa botiniy sifatlariga kiradi. Qahramonlik, javonmardlikning eng yuksak namunasi payg‘ambarlarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liqdir. Javnardlik va fatiylik kabi axloqiy sifatlar barcha

<sup>10</sup> Iqibos Jasurbek Mahmudovning doktorlik dissertatsiyasidan keltirildi. Qarang, Rahşan Gürel. Razavının Fütüvvet-namesı (Fütüvvet-nama-i kebir veya Miftahud-dakayık fi beyan l futuvveti vel haqayık). Doktora Çalıŷması. – İstanbul, 1992. – B. 3-8.

<sup>11</sup> Schimmel, a.g.e., s. 262. Schimmel burada şoyle bir ifadeyi kullanıyor: “Ali’den başka fetâ, Zülfikâr’dan başka kılıç yoktur.” ( لا سيف إلا ذو الفقار و لا فتى إلا على ). Bu ifadeyi İbrahim Besyûni, *Taberi Tarihi*’nden (Bkz. *Târîhu’l-Taberi*, Kâhire 1957, II, 197.) nakil yaparak eserine almıştır (Bkz. İbrahim Besyûni, a.g.e., s. 218.). İbn Arabî’ye gore de bu dünyada mutlak manada bir fütüvvet mümkün değildir. Zira irâdeler ve amaçlar farklı ve zıt olduğu için hepsini kuşatmak zordur. Fütüvvet ehlinin yapması gereken Hâlik’ma donmesidir. Bir kul olarak bu kişinin nefsiyle ve başkasının isteğiyle değil de Rabbinin hükmüyle hareket etmesi gerekir. Bkz Muhyiddin İbn Arabî, *el-Futuhâtu’l-Mekkiyye* (Tahk. Osman Yahya), Kâhire 1992, IV, 56.

<sup>12</sup> Kuşeyrî, *er-Risâle*, s. 227. Kuşeyrî, fütüvvetin, Rablerine iman ettikleri için Ashab-ı Kef’den geldiğini, putları kırduğundan dolayı da Hz. İbrahim e Allah “fetâ” dendiğini belirtir.

<sup>13</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмardлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011-йил, 9-10- бет.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

payg‘ambarlarda turlicha talqin etilgan. Masalan, Qur’oni Karimning Baqara surasida shunday deyilgan: “O‘sha payg‘ambarlarning ayrimlarini ayrimlaridan afzal qildik. Ularning oralarida Alloh (bevosita) so‘zlagan zotlar bor. Va (ularning) ayrimlarini (Alloh) yuksak darajalarga ko‘tardi.”<sup>14</sup> Mazkur oyat orqali javonmardlikda payg‘ambarlarning darajotlari bir-biridan farq qilishi nazarda tutilmoqda. Masalan, Qur’onning “Qasas”, “Toha”, “An’om”, “Yusuf” suralarida Ibrohim, Muso va Horun, Yusuf payg‘ambarlarning futuvvatga aloqador jihatlari tilga olinadi. “Qasas” surasining juda ko‘p o‘rinlari Muso, Horun va uning xizmatkor yigiti (Yusha’) ga bag‘ishlanganligini o‘ziyoq futuvvat har doim nubuvvat bilan yonma yonligini tasdiqlaydi: “Muso (o‘zining xizmatkor) yigitiga: «To ikki dengiz qo‘shiladigan yerga yetmaguncha yoki uzoq zamonlar kezmaguncha yurishdan to‘xtamayman», degan paytini eslangiz. (*Kahf surasi:60*) Mazkur oyat bilan Muso va Xizr payg‘ambarlar haqidagi qissa boshlanadi. (Bu haqida “Kahf surasi”da shunday deyiladi: “Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilarki, Biz unga O‘z dargohimizdan rahmat (ya’ni, payg‘ambarlik) ato etgan va O‘z huzurimizdan ilm bergan edik.) (*Kahf surasi 65*)”<sup>15</sup>

*Rivoyat qilishlaricha, Muso alayhissalom Tangri taologa munojot qilib: «Bandalaring orasida mendan ilmi ziyodaroq bo‘lgan kishi bormi?» deb so‘raganida, Alloh taolo: «Ha, Xizr sendan olimroq», deb javob qilgan ekan.*

*Shunda Muso: «U zotni qandoq izlab topurman?» deganida, «Dengiz sohilidagi qoya oldidan topursan», degan javob bo‘libdi. «U yerga qanday borilur?» deb so‘raganida, Alloh taolo aytgan ekan: «Bir baliqni savatga solib, yo‘lga chiqarsan. Qayerda uni yo‘qotib qo‘ysang, Xizrni o‘sha yerdan topursan!» Shundan keyin Muso xizmatkor yigitiga baliq solingan savatni berib: «Bu baliqni yo‘qotgan joyingda menga aytarsan», deb tayinlab yo‘lga tushibdilar. Muso va xizmatkor yigiti ikki dengiz qo‘shiladigan joyga yetishgach, baliqlarini unutdilar. Baliq esa sezdirmagan yo‘sinda Alloh inoyati bilan dengizga qarab ravona bo‘ldi. Xizmatkor yigit Musoga shunday dedi: “Biz dengiz sohilidagi qoyaga borib orom olganimizda baliqqa jon kirib savatdan tushib ketganini unutibman” Muso esa xizmatkor yigitga: “Mana shu biz istagan narsadir”,- dedi. Muso Xizrni izlab topib undan ilm olishni so‘radi. Xizr esa Musoga ilm olishda men bilan birga ilm mashaqqatlariga sabr qilishga toqating yetmas dedi. Zotan o‘zing egallab olmagan senga oshkor bo‘lmagan narsaga qanday sabr qilasan dedi. Muso esa men sabr qilaman. Va har bir ishda senga osiylik*

<sup>14</sup> Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи шайх Аловуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 2004.

<sup>15</sup> Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи шайх Аловуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 2004.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

*qilmasman dedi. Hizir Musoga ilm berishga rozi bo‘ldi va ikkovlari yo‘lga tushishdi. Musoning ilmda sabr bardoshini sinash uchun Xizr kemani teshdi, bir bolani o‘ldirdi va bir shahar ichidagi yiqilay degan devorni tiklab qoydi. Bu orqali Musoning sabr va bardoshi sinaldi.*

Yuqorida keltirilgan Muso va uning xizmatkor yigiti hamda Xizr bilan bog‘liq oyatlar orqali Musoning Xizrni uchratmagungacha bo‘lgan ilmi zohiriy ilm eganligi va Xizrni uchratib ilmi laduniy botin ilmga muyassar bo‘lganligi hikoya qilinadi. Muso va Xizr uchrashuv motivi pir va murid ramzi sifatida talqin etiladi. Muso va Xizrning “ikki daryo qo‘shiladigan joydagi uchrashuvi” ham ramziy xarakterga ega bo‘lib, unda ikki daryo “nubuvvat va valoyat irmoqlari”<sup>16</sup> deb qaraladi. Rivoyatda Musoning yosh xizmatkor yigiti javonmardlik orqali tasavvufga erishishga intilgan bo‘lsa, Muso a.s esa Xizrni izlab ilmi ladunni egallashga erishadi. Oyatda keltirilgan rivoyatni tasavvufiy tahlil qilsak, dengiz ilohiy ma’rifatni, baliq esa solih egallashi mumkin bo‘lgan irfonni ifodalaydi. Rivoyatning mohiyatida futuvvat ahli (fatiylar) doim tasavvufga, tasavvuf ahli (so‘fiylar) esa har doim irfon (orif) ahliga intilganligini bilish mumkin.

Payg‘ambarlar tarixida Yusuf alayhissalom qissasi ham o‘ziga xos xarakterga ega qissalar sirasiga kiradi. Mazkur qissada Yusuf alayhissalomning javonmardligi Zulayhoga bo‘lgan cheksiz muhabbat bilan uyg‘unlashib ketadi. Yusuf alayhissalomga fatiylilik, javonmardlik gunohlardan saqlanganlari va yaqinlarini avf etganlaridan keyin berildi. Qur’onning “Kahf surasi”da keltirilgan “As’hobi kahflar” (g‘or ahllari) Rabbilariga iymon keltirib kufrdan saqlanganliklaridan keyin futuvvat nomi berildi. Umuman, payg‘ambarlarning axloqiy sifatlari futuvvat va javonmardlik g‘oyalari bilan yanada ziynatlangan.

Futuvvat ilmi insonga berilgan axloqiy sifat bo‘lib, bu sifat avvalo, Allohning o‘zidan payg‘ambarlarga, keyin avliyolarga, pirlarga, podshohlarga va bani bashariyatga berilgan fazilatdir. Shuning uchun ham so‘fiylar payg‘ambarlardan meros qolgan futuvvat axloqi va bu sifatga ega bo‘lishga har doim intilganlar.

Futuvvat ilmining tarixiy taraqqiyoti haqida ikki xil usulda fikr bildirish mumkin:

birinchisi, ilohiy kitoblarda futuvvat ilmining axloqiy kategoriya sifatidagi shakllanishi;

ikkinchisi, ijtimoiy harakatning maslak g‘oyalarini ifodalashdagi o‘rni.

<sup>16</sup> Кобиров У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. 2- китоб. (Монография). Самарқанд СамДУ нашри, 2021 йил, 157-бет.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Futuvvat ilmining birinchi davri Odam alayhissalomdan boshlanib, to Muhammad Mustafo (s.a.v) gacha bo‘lgan payg‘ambarlar, avliyolar, valiyalar hayotidan hikoya qiluvchi qissa va rivoyatlarda, shuningdek, eng qadimgi yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va qahramonlik ruhidagi epos va dostonlarda tilga olingan bo‘lsa, ikkinchi davrida esa futuvvat va javonmardlik g‘oyalari ma’lum bir ijtimoiy guruhning maslak shioriga aylandi. Bu uyushmaning tarixiy ildizi ham payg‘ambar va sahobalar tomonidan tashkil qilingan nubuvvat hayliga ya’ni payg‘ambarlar halqasiga borib bog‘lanadi. Demak tasavvuf va futuvvatdagi pir va muridlik an’anasining tarixiy ildizi nubuvvat silsilasi ta’sirida shakllangan degan xulosa qilish mumkin.

Futuvvat ilmi dunyo sivilizatsiyasining muhim ijtimoiy instituti hamdir. U payg‘ambarlarning nubuvvat halqasidan boshlanib, valoyat ahllarini, tasavvufdagi zohid-u, obidlarni; so‘fiy-u, oriflarni; faqir-u, darvishlarni; pir va muridlarni bir-biriga bog‘lagan. Natijada o‘zing qoidasiga, rasm-rusumiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh doiralarini vujudga keltirgan. Futuvvat ilmi esa bu guruhlarning umumiy mafaatlari va g‘oyalariga mos tushgan. Shu bois ham so‘fiy bilan fatiyni, javonmard bilan malomatiyning maqsadlari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Tasavvuf tarixiga nazar tashlansa, juda ko‘plab so‘fiylar javonmard fatiy bo‘lishgan.

Islom paydo bo‘lgandan keyin futuvvat, feta, fatiy atamalari mazmunan kengaydi, endi u faqat axloqiy qadriyat sifatidagina emas, balki ma’lum bir tashkiliy guruhlarning maslak g‘oyalarini ifodalay boshladi. Futuvvat dastlab induvidal axloqiy sifat bo‘lib, tashkiliy birlashmalardan mahrum edi.

Futuvvatning ijtimoiy va tashkiliy ma’no kasb etishi Arabistonda emas, ko‘proq Iroq va Forsda paydo bo‘lgan degan turli xil qarashlar ham mavjud. Futuvvatning ijtimoiy tashkiliy ma’no kasb etishi birinchilardan bo‘lib, asli fors bo‘lgan arab shoiri Bashshor ibn Burd (vaf. 783) ijodida uchraydi. U futuvvatni sosoniylar davridan meros bo‘lib qolgan institut sifatida islom muhitida ommalashtirishga intilgan bo‘lishi mumkin.<sup>17</sup> degan fikrlar mavjud.

Sosoniylar davrida futuvvat termini o‘rnida ayyaran, marzaban, azadan, javonmardon istilohlari qo‘llangan.<sup>18</sup> Bu terminlar sosoniylar davrida shahar qo‘riqchisi, militsiyachisi vazifalarini bajargan. Sosoniylar davlatini ichki davlat tuzilishida ayyaron Kichik Osiyoda paydo bo‘lgan axiylar jamoasiga, javonmardon esa axloqiy qadriyat majmui o‘laroq arab madaniyatida paydo bo‘lgan futuvvatga

<sup>17</sup> Zakeri M. “Sasanid Soldiers in Early Muslim Society The Origins of Ayyaran and Futuwwa.” (Ilk musulmon jamiyatida sosoniy askarlari: ayyoran va futuvvatning kelib chiqishi.) Wiesbaden: Harrassowitz, 1995.

<sup>18</sup> Zakeri M. “Sasanid Soldiers in Early Muslim Society The Origins of Ayyaran and Futuwwa.” (Ilk musulmon jamiyatida sosoniy askarlari: ayyoran va futuvvatning kelib chiqishi.) Wiesbaden: Harrassowitz, 1995.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mos keladi. Insoniyat tarixi va adabiy-estetik tafakkur tarixiga nazar tashlansa, futuvvat axloqi bilan bog‘liq voqealarning tub ildizlari payg‘ambarlar bilan bog‘liq qissa va rivoyatlarga borib tutashadi. Ilk axiylik tashkiloti haqida ham olimlar o‘rtasida har xil qarashlar o‘rtaga tashlangan. Masalan, Jasurbek Mahmudovning keltirishicha, futuvvatning ilk axiylik tashkilotiga aylanish davrini olim Musoning yaqin do‘sti Horunga bog‘lab talqin qilsa, turk olimlari ilk axiylik tashkilotini Hazrat Ali nomi bilan bog‘laydi. Aslida futuvvatning ijtimoiy tashkilotga aylanishini aniqlash biroz nisbiydir. Lekin futuvvatni chuqurroq o‘rganilsa, axiylik tashkilotiga birlashuvi birinchi ma‘lum bir ijtimoiy tabaqa doirasida emas, balki payg‘ambarlarning hayot faoliyati bilan bog‘liqligi ma‘lum bo‘ladi. Payg‘ambarlar tarixini chuqurroq o‘rganilsa, aslida axiylik tashkilotining ilk boshlanish davri Odam alayhissalom va uning o‘g‘li Shis alayhissalomga borib taqaladi. Tasavvuf adabiyotida Shis alayhissalom aql-idrok, fahm-farosat, saxovat timsoli sifatida tilga olinadi. Bir rivoyatga ko‘ra Shisning qarindoshlari undan qarz olib uni aldamoqchi bo‘lishadi. Biroq qarindoshlarining nayranglari fosh bo‘ladi. Yolg‘on fosh bo‘lib Shis g‘olib bo‘ladi. O‘shandan buyon tasavvuf adabiyotida ramziy ma‘noda “Shis qo‘li” degan ibora paydo bo‘ldi. Adabiyotshunos U.Qobilov mazkur iborani “...saxiylik va saxovat ramzini ifodalab keladi. Ba’zi qarashlarda saxovatpeshaligi bois Shis birinchi so‘fiy deb talqin etiladi va javonmardlik maslagini anglatadi.”<sup>19</sup> deya izohlaydi. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida “Shis alayhissalom qissasi” keltirilgan. Shis Odam alayhissalomning Qobildan o‘ttiz yil keyin tug‘ilgan farzandi bo‘lib, unga bo‘zchilik hunari berilgan edi. “Qissasi Rabg‘uziy”da javonmardlikni bo‘zchilik kasbi bilan aloqadorligi tilga olingan: “Bo‘zchilik ezgu sinoat turur. Qamug‘ o‘lukka va tirikka yarar. Xabarda kelmish: Rasul alayhissalom yorliqadi: Ni’-ma al-amalu al-gazlu linisa’i ummati va ni’ma al-amalu al-xiyatatu lirikali ummati lav la al-kizbu fihim. (Ya’ni, bo‘zchida olti xislat bor: ikki ul turur qamug‘i sun’iy bo‘lurlur, ikkinchi javonmard, uchinchi g‘arib do‘st bo‘lurlar, to‘rtunchi ko‘ngullari kichik bo‘lurlar, beshinchi o‘luk-tirik anlarga muhtoj bo‘lurlar, oltinchi qamug‘ yo‘llug bo‘lur.)

Futuvvat tasavvufning amaliy ruhiy tarbiyasidir. Shu sababli ham futuvvat axloq bilan bog‘liq tushuncha bo‘lganli uchun uning mazmun-mohiyati tasavvuf nazariyasida ham va boshqa tariqatlarda ham mavjud. Uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash uchun barcha tariqat va oqimlarni chuqur bilish talab etiladi.

<sup>19</sup> Қобилов У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. 2- китоб. (Монография). Самарқанд СамДУ нашри, 2021 йил, 158-бет.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati (Tarjimon: N.Komilov). – T.: O‘zbekiston milliy insklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2011-yil, 9-bet.
2. Sullamiy. Tasavvufda futuvvat, tarjimon Otash S. Anqara. 1977. 24-bet.
3. Farhangi zaboni tojiki (az asri X to ibtidoi asri XX). Iborat az du child. Dar zeri tahriri M.Shukurov va d. Child I. – Moskva: Sovetskaya ensklopediya, 1969.
4. Sayyid Ja’far Sajjodiy. Farhangi istilohot va ta’biroti irfoniy. – C. 294.
5. Kuşeyrî, *er-Risâle*, s. 230; İbn Kayyim, *Medâricü’s-sâlikîn* (Tahk. İmâd Amir), Dârü’l-Hadis, Kâhire 2003, II, 278.
6. Reşat Ongoren, “Ma’rûf-i Kerhî”, *TDVİA*, XXVIII, İst. 2003, s. 68. Sülemî, Ma’ruf el-Kerhî’nin fütüvvetle hatırlanan biri olduğunu belirtir (Bkz. Sülemî, *Tabakât*, s. 84. Krş. Hucvirî, a.g.e., s. 212.).
7. Süleyman Uludağ, “Fütüvvet”, XIII, *TDVİA*, İst. 1996 s. 259. Bkz. Ali Sâmî en-Neşşâr, *Neş’etü’l-fikri’l-felsefi fi’l-İslâm*, Kâhire 1978, III, 403.
8. Raşan Gürel. Razavının Fütüvvet-namesı (Fütüvvet-nama-i kebir veya Miftahud-dakayık fi beyan l futuvvetı vel haqayık). Doktora Çalışması. – İstanbul, 1992. – B. 3-8.
9. Annamari Schimmel, a.g.e., s. 262. Schimmel burada şöyle bir ifadeyi kullanıyor: “Ali’dan başka fetâ, Zülfikâr’dan başka kılıç yoktur.” ( لا سيف إلا ذو الفقار و لا فتى إلا على ). Bu ifadeyi İbrahim Besyûnî, *Taberî Tarihi*’nden (Bkz. *Târîhu’t-Taberî*, Kâhire 1957, II, 197.)
10. Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi: shayx Alovuddin Mansur. – Toshkent: Cho’lpon, 2004.
11. Qobilov U. Nubuvvat haqiqati – badiiy ijod ruhi. 2-kitob. (Monografiya). Samarqand SamDU nashri, 2021-yil, 157-bet.
12. Zakeri M. “Sasanid Soldiers in Early Muslim Society The Origins of Ayyaran and Futuwwa.” (Ilk musulmon jamiyatida sosoniy askarlari: ayyoran va futuvvatning kelib chiqishi.) Wiesbaden: Harrassowitz, 1995.